



VATANGA MUHABBAT-SADOQAT VA FIDOIYLIK RAMZI

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti 1- bosiqch kursanti

Annotatsiya: *Bu dunyoda o`z yurtini, kindik qoni tomgan otamakonini sevmaydigan, Vatandan uzoqlarga ketganida uni intiqib sog`inmaydigan inson bo`lmasa kerak. Inson qalbidagi sadoqat, fidoyilik tuyg`ulari ham o`z Vataniga bo`lgan muhabbatdan paydo bo`ladi. Dunyodagi eng go`zal bino va inshootlar ham ana shunday muhabbat qudratidan paydo bo`lgan va ular Vatanga sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida mangu qad rostlab turaveradi. Men bu borada ming yillarni emas ushbu ozod va obod hayotimizni ta`minlab bergan mustaqillik yillarini qalamga olmoqchiman.*

Kalit so`zlar: *Vatan, tuyg`u, sadoqat, fidoyilik, mustaqillik, xalqimiz, mehnatkash, yuksak, kelajagimiz, inson, bunyodkorliklar, ishlar, vazifamiz.*

Ya`ni shoir Vatanga bo`lgan tuyg`usini she`rlarida yonib kuylasa, quruvchi yerdan qad rostlab har bir shahar va qishloqqa ko`cha va xiyobonga, so`lim oromgohlarga ko`rk bo`lib turgan turli bino va inshootlarni yaratadi. Ustoz muallimlar turli kasblarni egallab shu yurtga sadoqat bilan xizmat qiluvchi o`g`il-qizlarni tarbiyalaydi, shifokor shunday insonlarning sog`lig`ini asraydi va hokazolar...

Biz buning isbotiga mustaqillik yillarida guvoh bo`layapmiz, ko`rayapmiz, quvonayapmiz. Mustaqillik yillarida tug`ilgan o`g`il-qizlarimiz hozir ayni navqiron yoshda. Shu yurt uchun, ota makon uchun belbog`lab mehnat qilayaptilar, o`qiyaptilar, yangi ixtirolar yaratayaptilar, sport shohsupalarida O`zbekiston bayrog`ini baland ko`tarib, yurt sha`ni va qadr-qimmatini ulug`layaptilar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o`tiz bir yillik bayramiga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish to`g`risida»gi qarorida xalqimiz asrlar davomida intilib yashagan va kurashgan, mustaqillik degan bebaho ne`matning qadr-qimmatini teran idrok etish, o`tgan davr mobaynida bosib o`tgan og`ir va mashaqqatli, ayni vaqtda sharafli yo`limiz, keng ko`lamli islohotlarimiz, qo`lga kiritgan ulkan yutuqlarimizning tub mohiyati va ahamiyatini yurtimiz va jahon jamoatchiligiga yetkazish, sodda qilib aytganda, biz kecha kim edigu bugun kim bo`lganimizni anglash, vatandoshlarimizni yangi marralar sari ruhlantirish, biz uchun eng ulug`, eng aziz ayyom bo`lmish mustaqillik bayramini yuksak darajada o`tkazish maqsadida qator vazifalar belgilab berilgan.

Ayniqsa qarorda yurtimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi yildan-yilga ochilib, tobora obod va go`zal bo`lib borayotgani, jumladan qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar tarmoqlarini barpo etish bo`yicha joriy etilayotgan dasturlarning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish borasida ham vazifalar qo`yilgan.

Mustaqillik bergan imkoniyatlar samarasi — ozod va obod turmush, aholi farovonligi bunyodkorlik, shiddat bilan ro`y berayotgan o`zgarishlarni bayram oldidan sarhisob qilish,



sharafli ishdir. Har bir soha bo'yicha bir maqola emas, keng ko'lamli asarlar yaratish mumkin.

«Bugun mamlakatimiz buyuk o'zgarishlar arafasida turibdi. Shuni unutmash kerakki, qoraqalpoq xalqi doimo yurtimizning tayanch tog'laridan hisoblangan va biz sizlarning salohiyatingizga hamisha cheksiz ishonch bilan qaraymiz».

Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga bo'lgan bunday yuksak ishonchi yurtimizni yanada obod, turmushimizni yanada farovon qilishi shak-shubhasizdir. Bularning hammasi bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarida namoyon bo'lmoqda. Vatan ostonadan boshlanadi. Inson dunyoga kelishi bilan vatan oldidagi burchi hamda vazifasi u bilan birga buladi. Har bir inson umri davomida "vatan menga nima berdi" -deb emas balki, "men vatanimga nima berdim" -deb yashashi kerak.

Farzand ona qornidaligidayoq tashqi muhitni his etib turar ekan. Mutahasislarni fikricha homlador ayol ko'proq ovoz chiqarib turli vatan haqida adabiyotlar o'qisa foydadan holi emas ekan. Shuningdek tug'ilajak farzandga vatanga bo'lgan muhabbatni aslida tug'ilmasdan singdirib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Vatanni onaga qiyoslashadi. Ko'plab adabiyotlarda "ona vatan" jumlasini juda ko'p uchratganmiz. Onamiz biz uchun qanchalar muqaddas zod. "onalar oyog'i ostida jannat" deyishadi. Onalarimiz bizga qanchalar umrini bag'shiyda etganini qarzini to'lash uchun umrimiz kamlik qiladi. Ona farzandini dunyoga keltirish uchun nafaqat jismonan balki, ruhan toliqishini hech oylab ko'rganmisiz? Onalar oldida vazifamizni buyuk islom dinimiz ham takidlab o'tishgan. Afsuski, hozirgi kunda ko'pchilik volidasi oldidagi vazifasini unutib bormoqda. Shu orinda sahobalardan biri payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ga bergan savoliga bergan javobi tahsinga loyiq deb oylayman.

Onamiz oldidagi burchimiz va vazifamiz vatanga bo'lgan muhabbatimiz bilan uyg'unlashmog'i zarur. Shu vatanda tug'ildik, o'sdik imkoniyatimiz boricha vatan ravnaqi yo'lida kuch g'ayratimizni, bilim salohiyatimizni ayamaylik. Shu jumladan ayollarimizga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Ularni mavqei 2 chi darajaga tushib qolmasligi zarur. Axir aytishadiyu "ayol bir qo'li bilan beshekni, ikkinchisi bilan dunyoni tebratadi". Ayollarni e'zozlagan yurt kam bo'lmaydi.

"biz hech kimdan kam bo'lmaymiz, kam emasmiz" shiorini yodda tutgan holda vatan ravnaqiga o'z hissamizni qo'shmog'imiz zarur. Axir bu muqaddas vatan bizniki emasmi? Uni sevishimiz ko'z qorachiday asrash burchimiz deb bilaman. Bu vatan, bu yurt seniki, meniki, uniki, buniki emas barchamiznikidir. Shu jumladan shuni ham yozishim kerak deb oylayman. Zero hozirgi kunda ko'plab vatandoshlarimiz eskicha boqimandalik kayfiyatida yurgani barchamizga sir emas. Mana shunday vatandoshlarimizga kerakli yordamlarni berib qo'llasak nur ustiga a'lo nur bo'lardi deb oylayman. Zero oqibatli yurtda baraka bo'ladi. Lekin kasbimizdan o'z manfaatimiz yo'lida qurol sifatida foydalanmaylik.

Ko'plab davlatlarda arzimagan sabablarni rokach qilib oilalar buzilishi yuzaga kelmoqda. Bu esa vatanimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Oqibatda norasida godaklar yetim bo'lib qolmoqda. Bu esa bolalar kelajagiga jiddiy ta'sir etmoqda. Yetim bolani kongli kamtik bo'lib, kamtik joyni turli maqsaddagi kishilar toldirishga urinishi ehtimoldan xoli emas. Mana shunday kemtikni vatanparlik ruhida toldiraylik. Bir birimizga mehr-

oqibatli bōlaylik. Zero bolalar oiladagi mehrni kōrib vataniga ōz muhabbatini baxshiyda eta olsin. Biz insonlardan nima qoladi, yaxshi amal yaxshi nom. Hatto buyuk Iskandar ham ōlimidan sōng tobutidan qōlini chiqarib ketdi. Iskandar hayoti bizga ibrat maktabi emasmi? U yurti uchun buyuk ishlarni qildi. Uning birgina shu amali kelajak uchun ōrnak deb bilaman. Xozirda kōplab jabhalarda islohotlar ketmoqda. Vatandoshlarimizni fikrini ekologik madaniyatga qaratmoqchiman. Bunga esa be e'tiborlik bilan kelajakka bolta urmaylik. Vatanparlik yōlida e'tibor chekka hududlarda ham olib borilishini istardim. Ushbu masalada bir yoqadan bosh chiqarilsa, yosh avlodni vatanparvarlik tuyg'ularini jushqunlantira olamiz deb ōylayman. Ana ushandagina bu sohada g'alabaga erishar edik. G'alaba yōlida tortilgan har qanday azob muqaddasdir. Mahallalarni kōzga kōringan joylarida sport kompleksi, shinamgina kutubxona barpo etilsa vatan ravnaqiga ōzini oliy janob hissasini qōsha oladigon yoshlar yetishib chiqishiga ishonaman. Zeroki vatan ravnaqini yoshlar ta'lim tarbiyasidan boshlamas ekanmiz, kelajakda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bobomiz Abdulla Avloniy ham "ta'lim tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"-deb bir asr muqaddam be'jiz aytmagan. Pullarimizni qayerdagi hayu-havasga emas, yoshlarimiz kelajagiga sarf etsak maqsadga erishamiz.

Hulosa ōrnida shuni alohida aytishim mumkinki, bu aziz va muqaddas vatan sizu bizlarga kecha yoki bugun bunyod etilmagan. Bu muqaddas vatan buyuk ajdodlardan avlodlarga me'rosdir. Shuning uchun vatan taraqqiyoti yōlida ozmi, kōpmi qōldan kelgancha ōz hissamizni qōshish barchamizni burchimiz. Ushbu blokpost orqali vatanim hayotida salgina ōzgarish kirita olganimda edi. Men uchun bu eng katta baxt bōlgan bōlar edi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006. -B.397.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.
3. Зикриллаев Ф.Н. Фельнинг шахс, сон, хурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. -III б.
4. Lex.uz-sayti